O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Nok mevasini savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilish standarti

(FVV-51:2025, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-51:2025 “Standard for the sale of pears and product quality control” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (BMT EIK) Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, daromadlilikni oshirishga va iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. BMT YEIK standartlari hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, importchilar va eksportchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi. Ular yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a‘zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Nok mahsulotini savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga oid ushbu yangilangan FFV-51 standarti Ishchi guruhning 2025-yildagi 80-sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2025/4 standartiga asoslangan

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

NOK MEVASINI SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ КАСАЮЩЕЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ГРУШ

STANDARD FOR THE SALE OF PEARS AND PRODUCT QUALITY CONTROL

Amalga kiritish sanasi: 1.08.2026-yil

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holatda yetkazib beriladigan Pyrus communis L. botanik turiga mansub navli noklarga nisbatan qo‘llaniladi, sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan noklar bundan mustasno.

II. Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartdan maqsad — tayyorlash va qadoqlash jarayonlaridan keyingi bosqichda nok mahsulotining sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdir.

Biroq, eksport qilinganidan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

• Mahsulotning yangiligi va taranglik biroz pasayishi;

• Ekstra navdan tashqari boshqa navlarga saralangan mahsulotlar uchun — ularning tabiiy yetilishi va tez buziluvchanlik xususiyati tufayli sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki har qanday boshqa usul bilan savdoga chiqarishi taqiqlanadi. Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu muvofiqlikni ta’minlash uchun shaxsan javobgardir.

A. Minimal talablar

Har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlarga rioya qilingan holda, barcha navlardagi noklar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

• butun bo‘lishi

• sog‘lom; bo‘lishi chirishi yoki buzilishi natijasida iste’mol qilishga yaroqsiz holga keltiradigan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi ;

• toza, ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi

• zararkunandalardan xoli bo‘lishi;

• zararkunandalar yetkazgan va meva mag‘zigacha o‘tgan shikastlanishlardan xoli bo‘lishi;

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;

• begona hid va (yoki) ta’mga ega bo‘lmasligi.

Noklarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:

• tashish va ortib-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Yetilish talablari

Noklarning rivojlanish darajasi va yetilganlik holati ularning keyingi pishish jarayonini davom ettira olishini hamda iste’mol uchun qoniqarli pishganlik darajasiga yetishini ta’minlaydigan bo‘lishi kerak.

C. Tasniflash

Noklar quyida belgilanganidek uchta navga ajratilinadi:

(i) Ekstra nav

Ushbu navdagi noklar yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular o‘z naviga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni aks ettirishi lozim.

Meva mag‘zi mutlaqo sog‘lom bo‘lishi, po‘stlog‘i esa qo‘pol, dag‘al zang dog‘laridan xoli bo‘lishi kerak.

Mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaydigan juda sezilmas, yuza kamchiliklar bundan mustasno bo‘lib, mevalar har qanday kamchiliklardan xoli bo‘lishi kerak.

Meva bandi shikastlanmagan bo‘lishi lozim.

Nok mevasining eti qattiq donachalarsiz bo’lishi lozim.

(ii) Birinchi nav

Ushbu navdagi noklar sifatli bo‘lishi kerak. Ular navli yoki nav turiga xos bo‘lishi lozim.

Mevaning et qismi butkul sog‘lom bo‘lishi kerak.

Biroq, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash sifatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasa:

- shaklidagi kichik nuqson
- yetilishidagi biroz nuqsonlar
- rangidagi biroz nuqsonlar
- juda oz miqdordagi dag‘al g‘adir budurliklar
- po‘stlog‘idagi quyidagi o‘lchamlardan oshmaydigan mayda nuqsonlar
- cho‘ziq shakldagi nuqsonlar uchun uzunasiga 2 cm;
- boshqa ildizlar uchun 2 cm.
- boshqa turdagi nuqsonlar uchun umumiy maydoni 1 cm^2 (bunda qoraqo‘tir (Venturia pirina va V. inaequalis) mustasno bo‘lib, uning umumiy maydoni 0,25 sm^2 dan oshmasligi kerak);
- maydoni 1 cm^2 dan oshmaydigan yengil ezilishlar.

Bandi biroz shikastlangan bo‘lishi mumkin.

Noklarda etining toshsimonligi (donadorligi) bo‘lmasligi kerak.

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlarrga kiritilmaydigan, ammo yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan noklar kiradi.

Mevaning et qismi jiddiy nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

Nok sifati, va ko‘rinishi jihatidan asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan xolda, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- shakldagi nuqsonlar
- yetilishidagi nuqsonlar
- rangidagi nuqsonlar;
- biroz dag‘al zangsimon g‘adir-budurlik;

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4- 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• po‘stlog‘idagi quyidagi o‘lchamlardan oshmaydigan nuqsonlar:
• cho‘ziq shakldagi nuqsonlar uchun uzunasiga 4 cm;
• boshqa turdagi nuqsonlar uchun umumiy maydoni 2,5 cm² (bunda qoraqo‘tir (Venturia pirina va V. inaequalis) kasalligi mustasno bo‘lib, uning umumiy maydoni 1 cm² dan oshmasligi kerak);
• maydoni 2 cm² dan oshmaydigan biroz ezilgan joylar.

III. O‘lchamlarga doir qoidalar

Mevaning o‘lchami uning ekvator kesimidagi maksimal diametri, vazni yoki donalar soni bo‘yicha aniqlanadi.

A. Minimal o‘lcham

Minimal o‘lcham quyidagicha bo‘lishi lozim:

(a) Diametri bo‘yicha o‘lchanadigan mevalar uchun

	Ekstra nav	*Birinchi nav*	*Ikkinchi nav*
Yirik mevali navlar[1]	60 mm	55 mm	55 mm
Boshqa navlar	55 mm	50 mm	45 mm

(b) Og‘irligi bo‘yicha o‘lchanadigan mevalar uchun	*Ekstra nav*	*Birinchi nav*	*Ikkinchi nav*
Yirik mevali navlar[1]	130 g	110 g	110 g
Boshqa navlar	110 g	100 g	70 g

(c) Soni bo‘yicha saralanadigan mevalar uchun:
Minimal o‘lcham (a) yoki (b) bandlariga muvofiq bo‘lishi kerak.
Standartga ilovasida “E” harfi bilan belgilangan navlar minimal o‘lcham talablaridan mustasno.

B. Bir xillik

O‘lchamdagi bir xillikni ta’minlash uchun bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyida keltirilganlardan oshmasligi kerak:
(a) Diametri bo‘yicha saralanadigan mevalar uchun:
• Ekstra navdagi mevalar hamda qator va qatlam qilib qadoqlangan birinchi va ikkinchi navdagi mevalar uchun — 5 mm;
• Sotuv qadoqlariga qadoqlangan yoki qadoq ichiga erkin joylashtirilgan birinchi navdagi mevalar uchun — 10 mm.
(b) Vazni bo‘yicha saralanadigan mevalar uchun:

Qator va qatlam qilib qadoqlangan Ekstra navhamda birinchi va ikkinchi navdagi mevalar uchun:

Vazn oralig‘i (g)	*Og‘irlik farqi (g)*
75-100	15
100-200	35
200-250	50
> 250	80

Sotuv kichik qadoqlarga qadoqlangan yoki qadoq ichiga erkin oylashtirilgan birinchi navdagi mevalar uchun:

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3ZBR72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[1]Yirik mevali navlarning to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati ushbu standartga ilova qilingan nok navlari ro‘yxatida keltirilgan.

Vazn oralig‘i (g)	*Og‘irlik farqi (g)*
100-200	100-200
> 200	100

(c) Soni bo‘yicha saralanadigan mevalar uchun:

O‘lchamlar orasidagi farq (a) yoki (b) bandlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Sotuv qadoqlarga qadoqlangan yoki qadoq ichiga erkin joylashtirilgan ikkinchi navdagi mevalar uchun o‘lcham bir xilligi bo‘yicha cheklovlar belgilanmaydi

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlar bo‘yicha qoidalar

Barcha savdo bosqichlarida, ko‘rsatilgan toifa talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir partiyada sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.[2]

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

(i) Ekstra nav

Soni yoki vazni bo‘yicha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroz birirnchi nav talablariga mos keladigan noklarning umumiy ruxsat etilgan og‘ishalrni 5 foiz miqdorida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ishlar doirasida jami 0,5 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ikkinchi nav sifati talablariga javob beradigan mahsulotlar bo‘lishi mumkin.

(ii) Birirnchi nav

Soni yoki vazni bo‘yicha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroz ikkinchi nav talablariga mos keladigan noklarning umumiy ruxsat etilgan og‘ishlarni 10 foiz miqdorida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ishlar doirasida jami 1 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ikkinchi nav sifati talablariga ham minimal talablarga ham javob beradigan mahsulotlar yoki chirish asoratlari bo‘lgan mahsulotlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

(iii) Ikkinchi nav

Soni yoki vazni bo‘yicha ushbu nav talablariga ham minimal talablarga ham javob beradigan noklarning umumiy ruxsat etilgan og‘ishlarni 10 foiz miqdorida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ishlar doirasida jami 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda chirish asoratlari bo‘lgan mahsulotlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

C. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha navlar uchun: o‘lchamga oid talablarga javob bermaydigan noklarning umumiy ruxsat etilgan og‘ishlarini soni yoki vazni bo‘yicha 10 foiz miqdorida belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ishlar quyidagi o‘lchamlarga ega bo‘lgan mahsulotlarni o‘z ichiga olmaydi

• Ekstra nav va birinchi nav uchun belgilangan minimal diametrdan 5 mm yoki undan ko‘p bo‘lmasligi kerak;

• ikkinchi nav uchun belgilangan minimal diametrdan 10 mm yoki undan ko‘p bo‘lmasligi kerak;

• belgilangan minimal vazndan 10 g yoki undan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #HUJJATDAN NUSXA OLISH VA TARQATISH TAQIQLANADI

[2] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Ushbu tekshirish tavakkaliga (tasodifiy) olingan namunalarning sifati butun partiyaning sifatini aks ettiradi degan taxmin (prezumpsiya) tamoyiliga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT/OECD) Amaldagi qoidalarini mahsulotni jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, ulgurji savdo, tarqatish markazlarida va oziq-ovqat chakana savdo omborxonalarida qo‘llash – shu jumladan tadbirkorlar tomonidan ham qo‘llanilishi – tavsiya etiladi. https://www.oecd.org/agriculture/fruit-vegetables/publications/oecd-fruit-and-vegetables-rules.htm.

V. Tijorat ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish mamlakati nav, sifat, o‘lcham va bir xil pishib yetilish darajasidagi noklardan iborat bo‘lishi kerak.

Ekstra nav uchun bir xillik talabi mevalarning rangiga ham taalluqlidir.

Biroq, sifati hamda har bir tegishli nav uchun kelib chiqish mamlakati bir xil bo‘lishi sharti bilan, sotuv kichik qadoqlarda bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli noklar aralashmasini birga qadoqlashga ruxsat beriladi. Bunday aralashmalarda o‘lcham bo‘yicha bir xillik talab etilmaydi.

Qadoq tarkibining ustki qismi butun qadoq ichidagi mahsulotning umumiy holatiga mos bo‘lishi kerak**.**

D. Qadoqlash

Noklar mahsulotning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Materiallardan, xususan, savdo tavsiflari tushirilgan qog‘oz yoki foydalanishga faqat tamg‘alash, agar matn yoki yorliq zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim bilan tushirilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

Har bir mahsulotga alohida yopishtiriladigan yorliqlar (stikerlar) olib tashlanganda o‘zidan yelim asoratlarini qoldirmaydigan va meva po‘stining shikastlanishiga olib kelmaydigan bo‘lishi kerak. Alohida mevalarga lazer yordamida tushirilgan ma’lumotlar meva po‘stining shikastlanishiga olib kelmasligi lozim.

Qadoqlarda har qanday yot moddalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

VI. Tamg‘alash bo‘yicha qoidalar

Har bir qadoqda[3] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan harflar bilan, aniq, o‘chmaydigan tarzda yozilgan hamda tashqaridan ko‘rinadigan holatda ko‘rsatilishi kerak

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va eksport qiluvchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan: ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, davlat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llaydigan davlat BMT-ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) Kod belgilari reestriga[5] kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[4]. Ko‘cha nomi mavjud bo‘lmagan taqdirda, jismoniy manzil ferma yoki eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksidan iborat bo‘lishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda pochta qutisi (PO Box) manzili eng yaqin shahar, viloyat va davlat nomi bilan birga taqdim etilsa, yuridik manzil sifatida qabul qilinadi[6]

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[3]Ushbu markirovka qoidalari ko‘rsatilgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan qadoqlar ichida taqdim etiladigan sotuv paketlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan sotuv paketlariga nisbatan qo‘llaniladi.

[4] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisi ishlatilgan taqdirda, "qadoqlovchi va jo‘natuvchi degan ko‘rsatma ushbu kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak hamda agar ushbu mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin uni tan olgan mamlakat hududning ISO 3166 standarti bo‘yicha kodi ko‘rsatilishi lozim.

[5] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html

.[6] Amerika Qo‘shma Shtatlarining pochta qutisi (PO Box) manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus sharti, chunki bu ob’ektni tekshirish yoki mahsulotni qaytarib olish holatlarida tezkor choralar ko‘rish imkoniyatini bermasligi mumkin hamda qadoqlovchi va jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy tamg’alash talablarining qismi hisoblanmaydi. VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

B. Mahsulotning xususiyati

• Agar qadoq tarkibi tashqaridan nok yozuvi ko‘rinmaydigan bo‘lsa;
• Navning nomi.

Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli noklar aralashmasi bo‘lgan taqdirda – barcha har xil navlarning nomlari.

Nav nomi sinonim shaklidagi nom bilan almashtirilishi mumkin. Savdo nomi[7] faqat nav nomi yoki uning sinonimiga qo‘shimcha ravishda ko‘rsatilishi mumkin.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish mamlakati[8] va ixtiyoriy ravishda — yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

Kelib chiqishi har xil bo‘lgan, tashqi ko‘rinishi bo‘yicha bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli noklar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakatining ko‘rsatkichi tegishli nav nomining bevosita yonida aks ettirilishi kerak.

E. Tijorat tavsifnomalari

• Nav;
• O‘lchami yoki qatorlar va qatlamlar qilib qadoqlangan mahsulotlar uchun — donalar soni;

Agar identifikatsiya qilish o‘lchamiga ko‘ra amalga oshirilsa, bu quyidagicha ifodalanishi kerak:

• Bir xillik qoidalariga bo‘ysunadigan mahsulotlar uchun — eng kichik va eng katta diametrlar yoxud eng kam va eng ko‘p vazn ko‘rinishida;
• Ixtiyoriy ravishda, bir xillik qoidalariga bo‘ysunmaydigan mahsulotlar uchun — qadoqdagi eng kichik mevaning diametri yoki vazni va undan keyin “va undan katta” yozuvi yoxud shunga tenglashtirilgan ibora, yoki zarur hollarda, qadoqdagi eng katta mevaning diametri yoki vazni ko‘rinishida.1962-yilda qabul qilingan

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1960-yilda qabul qilingan.
Oxirgi marta 2025-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.
2023-yilgi Standart maketga muvofiqlashtirilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi ushbu standartning qo‘llanilishi bo‘yicha rasmli tushuntirish broshurasini nashr etgan. Ushbu nashrni OECD kitob do‘konining www.oecdbookshop.org veb-saytidan xarid qilish mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[7]Savdo nomi muhofaza qilinishi so‘ralgan yoki muhofaza qilingan tovar belgisi (savdo belgisi) yoxud har qanday boshqa tijorat nomi bo‘lishi mumkin.

[8] Mamlakatning to‘liq nomi yoki amalda keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ilova

Noklar uchun o‘lcham mezonlari
L = Yirik mevali nav
E = Eng kichik o‘lcham talablaridan ozod qilingan nok navlari

Nok navlarining to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati

Ushbu ro‘yxatda mavjud bo‘lmagan navlar, agar ular standartning III bo‘limida tavsiflangan boshqa navlar uchun belgilangan o‘lcham talablariga javob bersa, savdoga chiqarilishi mumkin. Quyida sanab o‘tilgan ayrim navlar bir yoki bir nechta mamlakatlarda tijorat belgisi sifatida muhofaza qilinishi so‘ralgan yoki muhofaza qilingan nomlar ostida bozorga chiqarilishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh (Working Party on Agricultural Quality Standards) tomonidan nav nomi deb hisoblangan nomlar birinchi ustunda keltirilgan. Ishchi guruh tomonidan ushbu nav shu nom bilan ham tanilgan bo‘lishi mumkin deb hisoblangan boshqa nomlar ikkinchi ustunda ko‘rsatilgan. Ushbu ikki ustunning hech biri tovar belgilarini o‘z ichiga olishga mo‘ljallanmagan. Ma’lum bo‘lgan tovar belgilariga havolalar uchinchi ustunga faqat ma’lumot uchun kiritilgan. Uchinchi ustunda biron bir tovar belgisining mavjudligi ushbu tijorat belgisidan foydalanishga litsenziya yoki ruxsatnoma berilganligini anglatmaydi — bunday litsenziya bevosita tovar belgisi egasidan olinishi shart. Bundan tashqari, uchinchi ustunda tovar belgisining mavjud emasligi, ushbu nav uchun ro‘yxatdan o‘tgan yoki ro‘yxatga olish jarayonida bo‘lgan tovar belgisi mavjud emasligini anglatmaydi. Tamg’alash talablari bo‘yicha standartning VI bo‘limiga qarang[9]

---

[9]Birinchi ustunda keltirilgan ayrim nav nomlari bir yoki bir nechta mamlakatlarda patent muhofazasi olingan navlarni anglatishi mumkin. Bunday patentlangan (mualliflik huquqi bilan himoyalangan) navlar faqat patent egasi tomonidan tegishli litsenziya asosida vakolat berilgan shaxslar tomonidan yetishtirilishi yoki ularning savdosi amalga oshirilishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti har qanday bunday patentning haqiqiyligi yoxud patent egasining yoki uning litsenziatining bunday navni yetishtirish yoki sotish bo‘yicha huquqlari borasida hech qanday pozitsiyani egallamaydi (mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh jadvalning 1 va 2-ustunlarida tovar belgilari (brend) nomlari ko‘rsatilmasligini ta’minlashga harakat qildi. Shunday bo‘lsa-da, agar jadvalga tovar belgisi nomi kiritilib qolgan bo‘lsa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi kotibiyatini bu haqda zudlik bilan xabardor qilish hamda ro‘yxatga o‘zgartirish kiritilishi uchun kotibiyatga (quyidagi manzilga qarang) tegishli nav yoki umumiy nomni, shuningdek, ushbu navga nisbatan har qanday amaldagi patent yoki tovar belgisiga egalik huquqini tasdiqlovchi yetarli dalillarni taqdim etish har qanday tovar belgisi egasining majburiyati hisoblanadi. Agar tovar belgisi egasidan qo‘shimcha ma’lumot talab qilinmasa, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh ma’lumotlar olinganidan keyingi navbatdagi sessiyada ro‘yxatni tegishli ravishda qayta ko‘rib chiqadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bunday tovar belgilarining haqiqiyligi yoxud bunday tovar belgilari egalari yoki ularning litsenziatlarining huquqlari borasida hech qanday pozitsiyani egallamaydi.

Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo departamenti
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi
Palais des Nations, CH-1211 Jeneva 10, Shveysariya

Nav nomi	*Sinonimlari*	*Tijorat belgilari /Savdo nomlari*	*O‘lchami*
Abbé Fétel	Abate Fetel		L
Abugo o Siete en Boca			E

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Akça			E
Alka			L
Alsa			L
Alexandrine Douil-lard			L
Amfora			L
Angelys		Angys ®	L
Bambinella			E
Bay 6474		Alessia ®	L
Bergamotten			E
Beurré Alexandre Lucas	Lucas		L
Beurré Bosc	Bosc, Beurré d’Apremont, Empereur Alexandre, Kaiser Alexande		L
Beurré Clairgeau			L
Beurré d’Arenberg	Hardenpont		L
Beurré Giffard			L
Beurré précoce Morettini	Morettini		E
Blanca de Aranjuez	Agua de Aranjuez, Espadona, Blanquilla		E
Bon Rouge		Victoria Blush	E
Cape Rose		Cheeky ®	L
Carusella			L
Castell	Castell de Verano		E
Cepuna		Migo ®	E
CH 201		Fred ®	L
Colorée de Juillet	Bunte Juli		E

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Comice rouge			L
Concorde			L
Condoula			E
Coscia	Ercolini		E
Curé	Curato, Pastoren, Del cura de Ouro, Espadon de invierno, Bella de Berry, Lombardia de Rioja, Batall de Campana		L
D’Anjou			L
Deveci			L
Dita			L
D. Joaquina	Doyenné de Juillet		E
Doyenné d’hiver			L
Doyenné du Comice			L
Dpp1			L
Erika			L
Etrusca			E
Falstaff			L
Flamingo			L
Forelle			L
Général Leclerc			L
Gentile			
Golden Russet Bosc			L
Gräfin Gepa			L

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Grand Champion			L
H2-169			L
Harovin Sundown			L
Harrow Delight			L
Jeanne d’Arc			L
Joséphine			L
Kieffer			L
Klapa Mīlule			L
Leonardeta	Mosqueruela, Margallon, Colorada de Alcanadre, Leonarda de Magallon		E
Lombacad		Cascade □	L
Moscatella			E
Mramornaja			L
Mustafabey			L
Nojabrskaja	Novemberbirne	Xenia ®, Novembra®	L
Packham’s Triumph	Williams d’Automne		L
Passe Crassane	Passa Crassana		L
PE2UNIBO		Early Giulia ®	L
PE3UNIBO		Debby Green ®	L
Perita de San Juan			E
Pérola			E
Pitmaston	Williams Duchesse		L
Précoce de Trévoux	Trévoux		L

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Président Drouard			L
Rode Doyenne van Doorn		Sweet Sensation ®, Sweet Dored ®	L
Rosemarie		Sempre	L
Santa Maria	Santa Maria Moret-tini		LL
Spadoncina	Agua de Verano, Agua de Agosto		E
Suvenirs			L
Taylors Gold			L
Thimo		Saxonia ®, Queens Forelle ™	L
Triomphe de Vienne			L
Uta		Dazzling Gold ®	L
Vasarine Sviestine			L
Williams Bon Chré-tien	Bon Chrétien, Bart-lett, Williams, Summer Bartlett		L

STANDARTLAR INSTITUTI #MU3Z5R72M4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI